

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/28.02.2022.T.101.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

KARIMOVA SADOQAT AMRILLOYEVNA

**DIZEL YOQILG‘ILARI UCHUN AKRILAMID VA ULARNING
HOSILALARI ASOSIDA YUVUVCHI - DISPERGIRLOVCHI
PRISADKALAR OLIH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

02.00.08 - Neft va gaz kimyosi va texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Buxoro - 2025

**Texnika fanlar bo‘yicha falsafa (PhD) doktori dissertatsiyasi
avtoreferat mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Karimova Sadoqat Amrilloevna

Dizel yoqilg‘ilari uchun akrilamid va ularning hosilalari asosida yuvuvchi -
dispersirovchi prisadkalar olish texnologiyasini ishlab chiqish.....3

Каримова Садокат Амрилловна

Технология получения моющих - диспергирующих присадок на основе
акриламида и его производных для дизельных топлив.....21

Karimova Sadoqat Amrilloevna

Synthesis of acrylamide-based detergent-dispersant additives for diesel fuels and
development of technology for their production.....39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 42

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/28.02.2022.T.101.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

KARIMOVA SADOQAT AMRILLOYEVNA

**DIZEL YOQILG‘ILARI UCHUN AKRILAMID VA ULARNING
HOSILALARI ASOSIDA YUVUVCHI - DISPERGIRLOVCHI
PRISADKALAR OLIH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

02.00.08 - Neft va gaz kimyosi va texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Buxoro - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/T5202 raqam bilan ro'yhatga olingan.

Doktorlik dissertatsiya Buxoro muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.bmti.uz) hamda "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Fozilov Sadriddin Fayzullayevich
texnika fanlari doktori, professor.

Rasmiy opponentalar:

Maxmudov Muxtor Jamolovich
kimyo fanlari doktori, professor

Abdullayev Jahongir O'rozali o'g'li
texnika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent.

Yetakchi tashkilot:

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi DSc.03/28.02.2022.T.101.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 24-may soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100118, Buxoro shahar, Qayum Murtazoyev ko'chasi, 15-uy. Tel.: (+99865)223-78-84, Faks: (+99865)223-78-84, E-mail: bmti_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro muhandislik-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (353 raqami bilan ro'yhatga olingan). (Manzil: 100118, Buxoro shahar, Qayum Murtazoyev ko'chasi, 15-uy. Tel.: (+99865) 223-78-84).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 12-may kuni tarqatildi.

(2025-yil 24-martdagi № 1 raqamli reestr bayonnomasi).



N.K. Majidova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor.

A.T. Oltiyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, texnika fanlari doktori, dotsent

H.B. Do'stov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi kimyo fanlari
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda neft va neft-kimyoviy sintez sanoatining jadal rivojlanishi, neft mahsulotlarini tozalash va qayta ishlab yuqori sifatli mahsulotlarga bo‘lgan talablarning tobora ortib borishi, neft-kimyoviy sintez jarayonlarni takomillashtirish, texnik-texnologik qayta jihozlash va modernizatsiyalashni taqozo qilmoqda. Neftni qayta ishlash va neft-kimyoviy sintez sohasida polidispers sopolimer va selektiv prisadkalar olish va ularni neft mahsulotlarini ekspluatatsiya jarayonlarida tadbiq etish zamonaviy neftni qayta ishlash va neft-kimyoviy sintez sanoatining asosiy vazifalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Shunga ko‘ra tovar neft mahsulotlarini ekspluatatsiya jarayonlarida qo‘llaniladigan mahalliy xomashyolardan polidispers va polifunksional prisadkalar sintez qilish va ularni qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator texnik-iqtisodiy muammolarni bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda jahonda neft va neft mahsulotlarining sifatini yaxshilash, ularni kimyoviy qayta ishlab yoqilg‘i va surkov materiallarini olish, ularning yuvuvchi-dispergirlovchilik xossalarini yaxshilash uchun yangi turdagi polifunksional prisadkalar sintez qilish, mavjud texnologiyalarini modernizatsiya qilish bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada mavjud ikkilamchi xomashyo manbalaridan foydalanib, akrilamid asosli bifunksional polidispers va dispergirlash xususiyatlariga ega prisadkalar ishlab chiqarish jarayonlarining zamonaviy, yuqori samarali usuli va texnologik qurilmalarini yaratishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda ikkilamchi resurlardan dizel yoqilg‘ilarning fizik-kimyoviy va reologik xossalari yaxshilash bo‘yicha prisadkalar olish bo‘yicha muhim natijalarga erishilmoqda. Dizel yoqilg‘isi uchun depressor va yuvuvchi-dispergirlovchilik xususiyatli bifunksional va polidispers samaradorligi yuqori bo‘lgan prisadkalar olish, ularning yangi tarkiblarini yaratish va ilmiy-texnologik asosini ishlab chiqish bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalarini va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish”¹ vazifalari belgilab berilgan. Shu nuqtai nazardan neft mahsulotlarining sifati yaxshilash ekologik tasniflaridan jahon standartlariga javob beradigan yoqilg‘ilar olish va ularga qo‘llaniladigan akrilamid va ularning hosilalari asosida import o‘rnini bosuvchi bifunksional prisadkalarni ishlab chiqarish va amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni, 2016-yil 28-sentyabrdagi “2016-2020 yillarda uglevodород xom ashyosini chuqur qayta ishlash negizida eksportga yo‘naltirilgan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish chora-tadirlari to‘g‘risida” PQ-2614-son va 2017-yil 29-avgustdagi “Kimyo sanoati tashkilotlarining eksport-import

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni

faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3246-son Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli bo'lgan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. "Kimyoviy texnologiya va nanotexnologiyalar" yo'nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyoda barcha rivojlangan davlatlarida neftdan olinadigan dizel yoqilg'isini fizik-kimyoviy, ekologik, ekspluatatsion xossalarini yaxshilash uchun samarali prisadkalar olish va ularni dizel yoqilg'isi yuvuvchi-dispergirlovchi xossalariga ta'sirini o'rganish bo'yicha jahonda quyidagi olimlar B.Ya.Englin, J.Denis, J.S.Manka, K.L.Ziegler, D.R.Nelson, Z.A.Sablina, A. A.Gureev, Ya.B.Chertkov, A.M.Kuliev, R.A.Terteryan, T.N.Mitusova, A.M.Danilov, S.T. Bashkatova, V.M. Kapustin va boshqalar, respublikamizda esa A.T. Jalilov, S.M. Turobjonov, B.N.Hamidov., Sh.M. Saydaxmedov, E.M. Saydaxmedov, S.A.Abduraximov, O.M. Yoriev, N.Yodgorov, U.K.Axmedov, O.S.Maxsumova, B.A.Mavlonov, S.F.Fozilov kabi olimlar tomonidan katalizatorlar va ularning kinetik o'zgarish masalalarini o'rganish sohasidagi fundamental tadqiqotlar, neft mahsulotlarini qayta ishlash va xossalarini yaxshilovchi prisadkalar sintezi, ularning ta'sir qilish mexanizmi, prisadkalarining tarkibini, texnologiyasi ishlab chiqish bo'yicha ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borilgan va muhim ilmiy-amaliy yutuqlarga erishilgan.

Xorij va mamlakatimiz amaliyotida neft mahsulotlarini qayta ishlash va ulardan qo'shimcha mahsulotlar olishda prisadkalarini ishlab chiqarish bo'yicha takliflar ilgari surilgan. Ammo, olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, foydalanilgan akrilamid va ularning hosilalari asosida bifunksional yuvuvchi-dispergirlovchi xossalari namoyon qiluvchi prisadkalar sintez qilish va ularni hozirgi kunda respublikamizdagi mavjud neft va neft mahsulotlari qayta ishlash uchun bifunksional, polifunksional va polidispers prisadkalar olish bo'yicha yetarli darajada o'rganilmagan.

Ushbu muammolarni echishda yurtimizda mavjud xom-ashyolardan foydalanib yuqori samaradorligiga ega katalizatorlar sintez qilish va ularni sanoat miqyosida ishlab chiqarish texnika va texnologiyalarini joriy etish, maqbul usullarni nazariy va amaliy asoslash muhim vazifa hisoblanadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro muhandislik-texnologiya instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining №37-22 "Antibakterial kompozitsiya uchun tarkib ishlab chiqish va texnologiyasini yaratish" va "Mahalliy xomashyolar asosida dizel yoqilg'ilari uchun yuvuvchi-dispergirlovchi prisadkalar olish va ularning xossalarini o'rganish (2023-2025y) mavzularidagi tuzilgan shartnomalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Dizel yoqilg'ilari uchun akrilamid va ularning hosilalari asosida yuvuvchi-dispergirlovchi prisadkalar olish texnologiyasini ishlab chiqarishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Akrilamid va ularning hosilalari sintez qilishda turli omillar ta'sirini tadqiq qilish;

sintez qilingan amidlarning tuzilishini va reaksiya qobiliyatini spektroskopik va kvant-kimyoviy tahlil usullari yordamida asoslash;

sintez qilingan amidlar asosidagi yuvuvchi-dispergirlovchi prisadkalar qo'shilgan dizel yoqilg'isining fizik-kimyoviy va ekspluatatsion xossalarini amaldagi standart talablarga javob berishini aniqlash;

mahalliy xomashyolardan olingan prisadkalar dizel yoqilg'isi yuvuvchanlik xossasiga ta'sir mexanizmini o'rganish va jarayonni matematik modellashtirish;

Yuvuvchi-dispergirlovchi ko'p funktsionali prisadkalar olishni texnologik jarayonini ishlab chiqish va texnologik ko'rsatkichlarni hisoblash.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida mahalliy xom ashyolar aminlar sifatida, dietilamin, akrilamid va xinazalindion-2,4 stearin kislota, nikotin kislotalari olingan.

Tadqiqotning predmetini akrilamid hosilalari asosida dizel yoqilg'isining yuvish-dispergirlovchi xossalarini yaxshilovchi prisadkalar olish va dispers sitemaning kolloid hamda texnologik xususiyatlarini tadqiq qilishdan tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tadqiqotni bajarishda amaliyotda keng qo'llaniladigan an'anaviy va zamonaviy standart usullaridan fizikaviy, fizik-kimyoviy, spektroskopik (IQ, YaMR) tahlil usullari hamda olingan tajriba ma'lumotlarini statistik qayta ishlashning matematik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

dizel yoqilg'ilari uchun yuvuvchi-dispergirlovchi prisadkalar sintez qilish amidirlash reaksiyasida dastlabki moddalar alifatik va aromatik karbon kislotalar hamda aminlar nisbati 1:1 mol, harorat 120-180°C bo'lganda mahsulot unumi 90% dan yuqori bo'lishi ilmiy asoslangan;

akrilamid va sterian kislota asosli prisadkaning 0,01% konsentratsiyasi dizel yoqilg'isining kokslanish koeffitsienti 0,3%, kullanishi 0,01% oshmaganligi, moylovchi-dispergirlovchi prisadka turiga mansub ekanligi amaliy isbotlangan;

sintez qilingan akrilamid asosida yuvuvchi-dispergirlovchi prisadkalar dizel yoqilg'isida ta'siri natijasida va 180°C, 4 soat oksidlash davomida zarrachalarning o'lchami 25 mkm dan 2.5 mkm kichrayganligi, yoqilg'i solishtirma sarfi nisbiy o'zgarishi 1,75% dan 1,29% ga va ishlatilgan gazlar tutuni nisbiy o'zgarishi 6,30% dan 4,93% ga kamayganligi aniqlangan.

akrilamid asosli prisadkalar unumi va molekulyar massasiga turli omillar ta'siri orasidagi bog'liqliklar qonuniyatini nazariy baholashning matematik modeli ishlab chiqilgan;

nazariy va eksperimental tadqiqotlar natijasida chet eldan import qilinayotgan prisadkalar o'rnini bosuvchi, mahalliy xomashyo akrilamid asosida dizel yoqilg'ilarining yuvuvchi-dispergirlovchi xossalarini yaxshilovchi prisadkalar olishning prinsipial texnologik sxemasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

dizel yoqilg'ilari uchun mahalliy xomashyolar karbon kislotalar va aminlar

asosida yuvuvchi-dispergirlovchi prisadkalar olish texnologik sxemasi ishlab chiqilgan;

mahalliy xomashyo asosida olingan yuvuvchi-dispergirlovchi prisadkalardan 0,01-0,05% dizel yoqilg'isiga qo'shilganda GOST 12156-1 metodi bo'yicha yuvish qobiliyati, antioksidlanish barqarorligi 220°C gacha ortadi, bu standart talabiga javob berishi aniqlangan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Izlanishlarning zamonaviy uslub va vositalardan foydalangan holda o'tkazilganligi, yuvuvchi-dispergirlovchi prisadkalar qo'shilgan dizel yoqilg'ilarining ekspluatatsion ko'rsatgichlari davlat standartlari asosida fizik-kimyoviy texnologik tahlil qilinganligi, tajribalar natijalariga matematik modellashtirish uslublari bilan ishlov berilganligi, bajarilgan tadqiqotlar asosida sintez qilingan yuvuvchi-dispergirlovchi prisadkalar respublikamizdagi neftni qayta ishlash zavodlarida ijobiy sinov natijalari olinganligi bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarini ilmiy ahamiyati yuvuvchi-dispergirlovchi prisadkalar akrilamid va ularning hosilalari asosida sintez qilinganligi va prisadkaning 0,01% miqdori dizel yoqilg'isining kokslanish koeffitsienti 0,3%, kullanishi 0,01% oshmaganligi, hamda 180°C, 4 soat oksidlash davomida zarrachalarning o'lchami 25 mkm dan 2.5 mkm kichrayganligi, yoqilg'i solishtirma sarfi nisbiy o'zgarishi 1,75 % dan 1,29% ga va ishlatilgan gazlar tutuni nisbiy o'zgarishi 6,30% dan 4,93% ga kamayganligi moylovchi-dispergirlovchi prisadka turiga mansub ekanligi amaliy isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mahalliy xomashyolar asosida sintez qilingan yuvuvchi-dispergirlovchi prisadkalar xorijdan import hisobiga olib kelinadigan prisadkalar o'rnini bosa olishi shuningdek, prisadkalar dizel yoqilg'isiga qo'llanilganda qurilmalarining xizmat muddatini 2-4 baravar ortishi tovar dizel yoqilg'isi uchun sarf xarajatlarning kamayishiga, hamda dizel yoqilg'isining fizik-kimyoviy, texnologik ko'rsatgichlari davlat standarti talablariga javob berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mahalliy xomashyo akrilamid va ularning hosilalari asosida yuvuvchi-dispergirlovchi prisadkalar olish texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Akrilamid va ularning hosilalari asosida yuvuvchi-dispergirlovchi prisadkalar sintez usuli "Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi" MChJ ning "2024-2026-yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati"ga kiritilgan ("Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi" MChJ ning 2024-yil 26-apreldagi 02-03-01/145 sonli ma'lumotnomasi). Natijada yuvuvchi-dispergirlovchi prisadkalar 0,0,1% miqdori kokslanish koeffitsienti 0,3 %, kullanishi 0,01 % ga teng bo'lgan yuvuvchi-dispergirlovchi prisadkalar olingan.

Akrilamid hosilalar asosida yuvuvchi-dispergirlovchi prisadkalar olish texnologiyasi "Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi" MChJda amaliyotga joriy qilinadigan istiqbolli rejalar ro'yxatiga kiritilgan. ("Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi" MChJning 2024-yilni 26-apreldagi 02-03-01/145-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, TD-L standartlari muvofiq ishlab chiqariladigan dizel yoqilg'isida

yuvuvchi-dispergirlovchi prisadkalar GOST 12156-1 standartiga mos yuvuvchi-dispergirlovchi xossalari yaxshilangan hamda yoqilg'i solishtirma sarfi nisbiy o'zgarishi 1,75 % dan 1,29 % ga va ishlatilgan gazlar tutuni nisbiy o'zgarishi 6,30 % dan 4,93 % gacha kamaytirilgan va fizik-kimyoviy va tribologik xossalari yaxshilangan dizel yoqilg'isi ishlab chiqarish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish nashr etilgan, shulardan 1 ta monografiya va O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 14 ta maqola, 10 tasi xorijiy va 4 tasi respublika ilmiy jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, maqsad va vazifalar, shuningdek, tadqiqotning ob'ekti va predmeti ifodalangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi fan va tenologiyalari taraqqiyotining ustivor yo'nalishlariga mosligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish hamda chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Dizel yoqilg'isining fizik-kimyoviy xossalarini yaxshilovchi prisadkalar va ularni sintez qilishning istiqbollari va muamolari”** deb nomlangan birinchi bobida dizel yoqilg'ilariga qo'yilgan texnik talablar, yoqilg'ining fizik-kimyoviy xossalari va unga ta'sir etuvchi omillar, dizel yoqilg'ilarining reologik va ekologik xossalarini yaxshilovchi prisadkalar olinishi va o'ziga xos xususiyatlari, yonish kamerasini, klapanlarni, karbyuratori tozalovchi yuvuvchi prisadkalar va ularning ta'sir mexanizmlari, organik moddalar asosida yuvuvchi-dispergirlovchi prisadkalar va ularning olish texnologiyasi kabi zamonaviy usullariga oid ma'lumotlar tahlil qilingan. Adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar tahlili natijalari asosida tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan.


Dissertatsiyaning **“Akrilamid asosida yuvuvchi-dispergirlovchi prisadkalar sintezi va ularning fizik-kimyoviy xossalarini aniqlashning zamonaviy usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tajriba qismida sintez jarayoni uchun dastlabki moddalarni tanlash va ularning tasniflari, akrilamid asosida yuvuvchi-dispergirlovchi prisadkalar sintezi metodikasi, sintez qilingan prisadka fizik-kimyoviy va prisadkali dizel yoqilg'isining yuvuvchi-dispergirlovchi xossalarini aniqlash usullari keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Akrilamid asosida prisadkalar sinteziga turli omillar**


ta'siri va yuvuvchi-dispergirlovchi xossalarini tadqiq qilish” deb nomlangan uchinchi bobida akrilamid asosida prisadkalar sinteziga turli omillar ta'sirini tadqiq qilish, sintez qilingan prisadkalarining funktsional guruhlarning yuvuvchi-dispergirlovchi, antioksidantlik xossalariga ta'siri, sintez qilingan yuvuvchi-dispergirlovchi prisadkalar tuzilishini IQ, YaMR va kvant-kimyoviy hisoblashlar yordamida tadqiq qilish, yuvuvchi-dispergirlovchi prisadkalar sintez jarayonini matematik modellashtirish va dizel yoqilg'isiga yuvuvchanlik xossalariga ta'sirini tadqiq qilish natijalari keltirilgan.

Karbon kislotalar C₉-C₁₇ va stearin va niotin kislotalar bilan ionli komplekslari va amidlari quyidagicha olindi. Karbon kislotalar amidlari ikki bosqichda olindi: birinchi bosqichida - kompleks sintez qilindi, ikkinchisida esa - harorat ta'sirida ionli kompleks molekulasidan suv molekulasini ajratildi, bunda amidlarga xarakterli guruh - C(O)N·R₂ - hosil bo'ldi.


Stearin kislotalar va dietilamin asosida amid sintezi:



Stearin kislotasi (SK) va akrilamid (AA) o'zaro ta'sirlashuvidan ionli kompleks (1) va amidlar (2) sintezi:




Stearin kislotasi va akrilamid o'zaro ta'sirlashuvidan ionli kompleks (1) va amidlar (2) sintezida dastlabki moddalar molyar nisbati 1:1 bo'lganda ion kompleks unumi 87,5%, amidni unumi 86,9% ga teng bo'ldi.



2:1 nisbatda bo'lganda dinikotinilakrilamid hosil bo'ldi: Niotin kislotasi va


akrilamid o'zaro ta'sirlashuvida yuqoridagi kabi holat kuzatildi. Dastlabki moddalar nisbati 1:1 bo'lganda: Reaksiya jarayonida stearin kislotasi konsentratsiyasi o'zgarish tezligi o'rganildi. Bu olingan natijalar asosida amidirlash reaksiyasi kinetik ko'rsatkichlari: reaksiyani tezlik doimiysi, faollanish energiyasi, oxirgi maxsulot hosil bo'lish unumi aniqlandi. Turli haroratda SK va AA reaksiyasi uchun kinetik egri chiziq-lari (1 va 2-rasm)da keltirildi.

Xinazalondion-2,4 va akrilamid asosida amid sintezi yuqoridagi (4) sintez kabi amalga oshirildi.




Karbon kislotalar va aminlar ishtirokida sintez qilingan xinazalondion-2,4 va akrilamid asosida olingan amidamidlar yuvuvchi dispergirlovchi prisadkalar sifatida yuqori samaradorlikni namoyon qildi.

Olingan natijalarga asosan reaksiya qaytar reaksiya kinetik egri chiziq-lariga mos, bu shundan dalolat beradiki, SK konsentratsiyasi ma'lum qiymatga yetgandan so'ng o'zgarishdan qoladi. 1-rasmdan ko'rish mumkinki, 200°C haroratda 120-150 minutda, 170°C da esa 400-480 minutda muvozanat qaror topadi, nisbatan past haroratda muvozanat qaralayotgan vaqt oraligida qaror topmadi. Olingan natijalar keltirilgan haroratlarda SK - 200 [SK] va 170 [CK] muvozanat konsentratsiyasini quyidagi formula yordamida aniqlash imkonini berdi.



1-rasm: Reaksiya davomiyligi, s Turli haroratda SK va AA reaksiyasini kinetik egri chiziq-lari (SK konsentratsiyasi o'zgarishini reaksiya davomiyligiga bog'liqligi)



2-rasm: Amid hosil bo'lish reaksiyasi tezlik konstantasi k₁ grafik aniqlanishi

Muvozanat holatida SK konversiyalanish darajasi reaksiyaga kirishmagan kislota konsentratsiyasiga nisbatan aniqlanishi 1-jadvalda keltirildi.

1-jadval

SK va AA reaksiyasi tavsifi

| T, °C | [SK] ₀ , mol/dm ³ | [SK] _m , mol/dm ³ | K _m | X(SK) | K ₁ , dm ³ /mol.s |
|-------|--|--|----------------|-------|--|
| 170 | 2,6732 | 0,2220 | 121,9 | 0,917 | 1,902.10 ⁶ |
| 200 | 2,6732 | 0,1845 | 182,0 | 0,930 | 5,370.10 ⁶ |

Reaksiya tartibi va tezlik doimiysi grafik usulda aniqlandi. Reaksiyada amid 1 hosil bo'lishi e'tiborga olinsa muvozanat mahsulot hosil bo'lish tomonga siljiydi, bu K_m qiymati yuqoriligidan dalolat beradi, to'g'ri reaksiyani kinetik ko'rsatkichlari kinetik egri chiziqni boshlang'ich qismidan topildi, bu vaqtda dastlabki moddalar konsentratsiyasi yuqori bo'lib, to'g'ri reaksiyani tezligi maksimal bo'ladi. Teskari reaksiya bu vaqtda deyarli bormaydi. Chiziqli bog'lanish faqat 1/[SK] -t koordinatada kuzatildi (3-rasm), bu shundan dalolat beradiki SK konsentratsiyasi bo'yicha reaksiya ikkinchi tartibli. Shunga bog'liq holda, reaksiya dastlabki moddalar nisbatini ekvimolekular holda olib borildi.


Bundan tug'ri reaksiyani tezlik konstantalari topiladi. k₁ tezlik konstantasi qiymati, shuningdek χ^2 Pirson bo'yicha me'zoni, R² determinatsiya koeffitsientlari 2-jadvalda keltirildi.

2-jadval

Turli haroratda to'g'ri reaksiyani ko'rsatkichlari

| T, °S | k ₁ , dm ³ /mol.s | χ^2 | R ² |
|-------|---|----------|----------------|
| 110 | 3,775.10 ⁻⁶ | 0,99888 | 0,99750 |
| 130 | 1,330.10 ⁻⁵ | 0,99393 | 0,98639 |
| 150 | 7,361.10 ⁻⁵ | 0,99480 | 0,98789 |
| 170 | 2,319.10 ⁻⁴ | 0,99707 | 0,99298 |
| 200 | 9,773.10 ⁻⁴ | 0,99557 | 0,98822 |

Reaksiyaning faollanish energiyasini aniqlash uchun $\ln k_1 - 1/T$ koordinata grafigi chizildi (3.-rasm).




3-rasm. Stearilakrilamid hosil bo'lish reaksiyasi faollanish energiyasi Y_{ef} aniqlash grafigi


Bunda faollanish energiyasi qiymati Arrenius tenglamasini integrallab topildi.

IQ spektrdagi 752,24 sm^{-1} yutilish sohasi N-H guruhi deformatsion yassi tebranishlariga, 1037,10 sm^{-1} , 1138,00 sm^{-1} yutilish sohalari alkilamin guruhi valent tebranishlariga, 1238,30 sm^{-1} va 1404 sm^{-1} yutilish cho‘qqilari N-H amid guruhi o‘rtacha intensivlikdagi valent tebranishlariga, 1614,42 sm^{-1} , 1660,71 sm^{-1} yutilish sohasi o‘rtacha intensivlikdagi N-H guruhi deformatsion tebranishlariga, 1693,50 sm^{-1} C=O karbonil guruhi simmetrik valent tebranishlariga, 3250,05 sm^{-1} yutilish cho‘qqisi ikkilamchi amid N-H valent tebranishlariga xosdir.

Spektrda ko‘rinib turibdiki, sopolimer tarkibidagi mos ravishda polipropilen asosiy zanjiridagi $-\text{CH}_3$ 0,91 ppm sohasida proton atomining triplet signali, $-\text{CH}_2-$ 1,31 ppm sohasida proton atomining dublet-dublet signali, $(-\text{CH}_2-)_x$ 0,92 ppm, CH 1,60 ppm proton atomining singlet signali, xenozalin asosiy azoziy zanjiriga birikkan amin guruhiga tegishli NH_2 guruhiga birikkan $-\text{CH}_3$ 3,03 ppm, OCO guruhiga birikkan $-\text{CH}_2-$ 6,12 ppm $-\text{CH}-$ 1,83 ppm signali sohalarda kuzatildi (6-7-rasm).




6-rasm. Xinazalondion-2,4 va akrilamid asosida olingan amidning IQ-spektri




7-rasm. Xinazalondion-2,4 va akrilamid asosida olingan amidning YaMR-spektri

Antioksidlanish xossasini baholashni asosiy usuli sifatida fotometrik usul tanlandi, u tajriba sharoitida oksidlanish jarayonida namuna optik zichligini o‘zgarishiga asoslangan (8-rasm). Yoqilg‘ini termooksidlanish barqarorligini baholash uchun maxsus mo‘ljallangan yopiq hajmli idishda yoqilg‘ini 3-5 soat davomida 180°C gacha qizdirildi. Oksidlanish bir vaqtning o‘zida 4 ta probirkada 2 ml namunada termostatli hammomda amalga oshirildi (9-rasm). O‘rganilayotgan namunalarning optik zichligi 470 nm (ko‘k filtr) va 525 nm (yashil filtr) to‘lqin uzunlikda o‘rganildi. Optik zichlik OZ470 va OZ525 qiymatlari oksidlanish vaqtiga bog‘liqligi grafigi chizildi.

10-rasmda dastlabki dizel yoqilg‘isi OZ₄₇₀ prisadka qo‘shilgan DYosinikidan yuqori, uni egri chiziq qiyaligi absissa o‘qiga nisbatan maksimaldir. Bu shuni bildiradiki, dastlabki DYosi oksidlanish tezligi eng yuqori, uni oksidlanish vaqtida ko‘proq qatron hosil bo‘ldi. MST prisadkali dizel yoqilg‘isini OZ₄₇₀ egri chizig‘i qolganlaridan quyida yotadi, egri chiziq egilishi kamroq, tegishlicha, prisadka MST sinergetik va MBT prisadkalarga nisbatan samardorligi yuqori, ya’ni oksidlanishni ingibirlash samarasi nisbatan yuqoridir.




8-rasm. 1 – MST; 2 – MBK; 3 - sinergetik; 4 – DYo. Dastlabki DYosi va 0,5% mass prisadkalar qo‘shilgan DYosi optik zichligini OZ_{470} 180°C di oksidlanish vaqtiga bog‘liqligi. 1-MST; 2-MBK; 3-sinergetik; 4-DYo.




9-rasm. FNQIZ DYosi OZ_{470} ni 0,2% mass konsentratsiyali prisadkalar LAG-03, sinergetik, agidol, XAA ishtirokida oksidlanish vaqtiga bog‘liqligi

Farg‘ona NQIZ dizel yoqilg‘isini 180°C haroratda 0,2% mass konsentratsiyali prisadkalar LAG-03, sinergetik, agidol, XAA ishtirokida termooksidlanish barqarorligini o‘rganish 12-rasmda keltirildi.

11-rasmdan ko‘rinib turibdiki, XAA prisadka boshqalarga nisbatan sezilarli darajada samaralidir. LAG-03 prisadka oksidlanishni tezlashtiradi, uning OZ_{470} egri chizig‘i dastlabki egri chizig‘i yuqorisidan o‘tgan.




10-rasm. FNQIZ DYo 0,5% mass. konsentratsiyali prisadkalar ishtirokida 180°C da oksidlanishida OZ_{525} ni o‘zgarishi




11-rasm. Farg‘ona NQIZ I-20 A moyi (1,2) va chet el Yaroslav NQIZ industrial moyi (3,4) oksidlanish vaqtini OZ_{525} ga bog‘liqligi. 1,3 - dastlabki DYo, 2,4 - 0,5% mass DEASK prisadkali DY, harorat 180°C

Sinergetik OZ chizig‘i dastlabki DYo egri chizig‘iga mos keladi, bu konsentratsiyada sinergetikni yoqilg‘iga qo‘shib bo‘lmaydi. XAA prisadka va taqqoslovchi prisadkalar ta’sir vaqtini o‘rganish uchun FNQZ DYo da 6-8 soat

davomida oksidlanish olib borildi. 11-rasmdan ko‘rinib turibdiki, yuqori antioksidlanish samaradorlikni DEASK prisadka namayon qildi, so‘nga barqarorlik MBK, MST, MNK, MTK , sinergetik ketma-ketligida kamayib bordi.




12-rasm. FNQIZ DYoyO 160°C haroratda oksidlanishiga sinergetik konsentratsiyasi ta'siri



13-rasm. FNQIZ DYoyO 180°C haroratda oksidlanishiga prisadkalar ta'siri

12-rasmdan qo‘rinib turibdiki, 160°C da sinergetik konsentratsiyasi 0,1 va 0,2% mass bo‘lganda FNQIZ DYosi oksidlanish tezligini sezilarsiz kamaytirdi, 0,001% mass qonsentratsiyada esa oksidlanishni tezlashtirdi. Sinergetik 180°C da samarali ta’sir qo‘rsatadi, bunda dastlabki DYoy oksidlanishi keskin tezlashadi.

14 (a)-rasmida dizel yoqilg‘isi namunalarini 180°C haroratda 4 soat davomida oksidlangandan so‘ng mikroskopik o‘rganish natijalari keltirildi. Dizel yoqilg‘isi prisadkasiz oksidlanganda zarrachalar o‘lchami 25 mkm gacha bo‘lgan qattiq qoldiq hosil bo‘ldi. Dizel yoqilg‘isiga XAA prisadkadan 0,001% mass konsentratsiyada kiritilganda 14 (b) -rasm, hosil bo‘lgan zarrachalar o‘lchami 2,5 mkm dan ortmadi.



14-rasm. Dizel yoqilg‘ini 180 °C da to‘rt soat davomida oksidlagandan so‘ng cho‘kkan zarrachalar o‘lchami o‘zgarishi.

a-prisadkasiz yoqilg‘i (zarrachalar o‘lchami 1,0-25,0 mkm)


b-XAA prisadka qo‘shilgan yoqilg‘i (zarrachalar o‘lchami 1,0-2,5 mkm)

Bunda FNQIZ 10 sex sinov ishlari **LSART** va **TSRT-2** uskunalarida o‘tkazildi. Tajriba sinov ishlarining natijalari 4-jadvalda keltirilgan.

FNQIZ tajriba sinov ishlarining natijalari

| Prisadka turi | Oksidlanish vaqti, min. | Prisadka miqdori, % | Optiq zichlik |
|---|-------------------------|---------------------|---------------|
| Prisadkasiz DY _o | - | - | 390 |
| Stearin kislotasi 36,9 ml, (0,3 mol) Akrilamid 21,3 gr (0,3 mol) (chiqim 87,5 %) | 0.5 | 0,0010 | 375 |
| | 2 | 0,01 | 358 |
| | 2.5 | 0,1 | 420 |
| Nikatin kislotasi 5 g Akrilamid 5,77 gr (chiqim 61,2) | 0.6 | 0,0010 | 383 |
| | 1.6 | 0,01 | 362 |
| | 2.5 | 0,1 | 379 |
| Xinazalondion-2,4 16,2 g (0,1 mol) akrilamid 7,1 g (0,1 mol) (chiqim 84,6) | 0.6 | 0,0010 | 435 |
| | 1.5 | 0,01 | 411 |
| | 2.5 | 0,1 | 356 |

Bunday hollarda ko'p faktorli regressiya tenglamasini tuzishdan oldin xususiy korrelyatsiya koeffitsientini hisoblab ko'ramiz, ya'ni olingan ikkita faktorning diskret funksiyaga ta'siri qandayligini ko'rsatadi.



15-rasm. Yevro-3 va Yevro-5 dizel dvigatellari uchun injektor nozullarini taqqoslash


Injektor purkagichi yonish zonasi bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqada bo'lganligi sababli, unga 350°C gacha bo'lgan yuqori harorat ta'sir qiladi. Bunday haroratlarda poliaromatik uglevodorodlar, geteroatomik va organometall birikmalar kabi past barqaror yonilg'i birikmalarining oksidlanib siqilish jarayoni sodir bo'ladi.

Injektor ichki dizel purkagichlari yuzasidagi cho'kindilar (IDID) purkagich tanasi ichida hosil bo'ladi: igna ustida, korpus ichida va purkovchi nozullari yuzasida. Ko'p miqdorda bu cho'kindilar injektorning sekin javob berishiga va harakatlanuvchi ichki qismlarning yopishishiga olib kelishi mumkin (15-rasm).

Dissertatsiyaning to'rtinchi "**Yuvuvchi-dispergirlovchi prisadkalarni olish texnologiyasi va uning iqtisodiy samaradorligi**" bobida amidirlash reaksiyasi

asosida dizel yoqilg'isining yuvuvchi-dispergirlovchi xossalarini yaxshilovchi prisadkalar olish texnologiyasi ishlab chiqish, akrilamid asosida sintez qilingan yuvuvchi-dispergirlovchi prisadkalarining iqtisodiy samadorligini baholash bo'yicha tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Sintez qilingan yuvuvchi-dispergirlovchi prisadkalar uchun quyidagi texnologik sxema taklif qilindi.



16-rasm. Stearin kislota va akrilamid asosida yuvuvchi-dispergirlovchi prisadkalar olish texnologiyasi sxemasi:

I- stearin kislota; II- oktan; III- akrilamid; IV-issiqlik tashuvchi agent-suv; V-chiqindi suv; VI-geptan; VII- qo'ndirma

1-stearin kislota saqlash sig'imi; 2-oktan saqlash sig'imi; 3-akrilamid saqlash sig'imi; 4 va 5-aralastirgichlar; 6, 7, 9, 12; 15-nasoslar; 8-reaktor; 10 va 16-vakuum filtrlar; 11-tindirgich; 13-geptan saqlash sig'im 14-ekstraktor; 17- tara (tayyor qo'ndirma saqlash uchun sig'im).

Stearin kislota va akrilamid asosida yuvuvchi-dispergirlovchi prisadkalar olish texnologiyasi 16-rasmda keltirilgan. Texnologik jarayon uch bosqichda boradi:

1. Stearin kislota va akrilamid eritmasini tayyorlash;
2. Qo'ndirmani sintez qilish;
3. Qo'ndirmani tozalash va quritishdan iborat.

Tadqiqot natijalari asosida sintez qilingan yuvuvchi-dispergirlovchi prisadkalarining narxi import qilinayotgan va bugungi kunda sanoatda qo'llanilayotgan prisadkalar narxi bilan o'zaro taqqoslandi.

5-jadvalda tirli xil mol nisbatlarda akrilamid asosida sintez qilingan yuvuvchi-dispergirlovchi prisadkalar olish uchun ularning laboratoriya sharoitida mahsulot unumini hisobga olingan holda xomashyolarning sarf-xarajat narxlari keltirilgan.

5-jadval

2 propenamid asosida sintez qilingan prisadkalar uchun sarflangan xomashyo narxlari

| № | Xomashyo | O'lchov birligi | 1 kg mahsulot olish uchun xomashyo sarfi | Xomashyo narxi 1 kg uchun, so'm | Jami, summa, so'm |
|---|-------------------------------|-----------------|--|---------------------------------|-------------------|
| №1 Pridin 3 kislota va propenamid asosida sintez qilingan prisadka $4+4,26 \cdot 0,61=5$ | | | | | |
| 1 | Piridin 3 kislota | kg | 0,80 | 766716,33 | 613373,064 |
| | 2 propenamid | kg | 0,852 | 502032,92 | 427732,04 |
| | Benzol | kg | 2280 | 60000,00 | 136800 |
| Jami: | | | | | 1177905 |
| №2 Oktadekan kislota va 2 propenamid asosida sintez qilingan prisadka $14,2+3,55 \cdot 0,869=15,43$ | | | | | |
| 2 | Oktadekan kislota | kg | 0,92 | 53000 | 48760 |
| | 2 propenamid | kg | 0,23 | 502032,92 | 115467,36 |
| | C ₆ H ₆ | kg | 2280 | 60000,0 | 136800 |
| | Jami: | | | | |
| №3 Xinozalin 2,4 diol va akrilamid asosida sintez qilingan prisadka $4,86+2,13 \cdot 0,81=5,67$ | | | | | |
| 3 | Xinozalin | kg | 0,857 | 230000 | 197110 |
| | Akrilamid | kg | 0,375 | 502032,92 | 188262 |
| | Benzol | kg | 2280 | 60000,0 | 136800 |
| Jami | | | | | 522172,0 |

Yuqorida keltirilgan 5-jadvaldan shu narsa ma'lum bo'ladiki, akrilamid asosli 1 kg prisadka ishlab chiqarish uchun Pridin 3 kislota va propenamid asosida sintez qilingan prisadka 117790,5 Oktadekan kislota va 2 propenamid asosida sintez qilingan prisadka 301027,0 va xinozalin 2,4 diol va akrilamid asosida sintez qilingan prisadka 522172 so'm xomashyo sarflanar ekan va prisadkalarining tannarxlari bilan solishtiramiz.

6-jadval

Germaniyadan keltiriladigan BASF kompaniyasining Lubrizol 8220 markali prisadka narxining akrilamid asosli prisadkalar narxidan kutilgan foyda

| № | Prisadka | O'lchov birligi | Miqdori kg | Bir birligining narxi, so'm | 100 kg uchun umumiy yig'indi, so'm |
|----------------------|---------------|-----------------|------------|-----------------------------|------------------------------------|
| 1 | Lubrizol 8220 | Kg | 1 | 1200000 | 12000000 |
| 2 | №1 prisadka | Kg | 1 | 1177905,0 | 11779050,0 |
| | №2 prisadka | | | 301027,0 | 3010270,0 |
| | №3 prisadka | | | 522172,0 | 5221720,0 |
| Kutilayotgan daromad | | | | №1 22095 | №1 220950 |
| | | | | №2 898973 | №2 8989730 |
| | | | | №3 677828 | №3 6778280 |

5 va 6- jadvallardan ko‘rinib turibdiki, akrilamid asosli yuvuvchi-dispergirlovchi prisadkalarining 1 kg uchun ja‘mi sarflanadigan xarajatlar 1177905,0 301027,0 522172,0 so‘mni tashkil etdi. Lubrizol 8220 xorijiy markali 100 kg xorijiy prisadkani sotib olishda 1200000 so‘mlik narx belgilangan. Bunda, iqtisodiy samaradorlik quyidagi prisadkalar uchun №1 220950 №2 8989730, №3 6778280 so‘m foydani tashkil etdi.

XULOSA

1. Dizel yoqilg‘ilari uchun akrilamid asosli yuvuvchi-dispergirlovchi prisadkalar sintez qilish amidirlash reaksiyasida dastlabki moddalar nisbati 1:1 mol, harorat 120-180°C va reaksiya davomiyligi 180 minut bo‘lganda mahsulot unumi yuqori bo‘lishi ilmiy asoslangan;

2. Sterian, nikotin va xinozalin 2,4 dion bilan akrilamidlarni o‘zaro ta’sirlashuv amidirlash reaksiyasi kinetikasiga turli omillar ta’siri kvant-kimyoviy hisoblashlar va tajribalar asosida aniqlangan;

3. Sintez qilingan prisadkalar tarkibi va tuzilishi element analizi va mass-xromatografik, spektroskopik va yuqori suyuqlik xromatografik usullar yordamida asoslandi, hamda prisadkalar tuzilishini dizel yoqilg‘isini tribologik yuvish-dispergirlash, antioksidlanish va ekologik xossalariga ta’siri izohlangan;

4. Sintez qilingan akrilamid va sterian kislota asosli amidlarning tarkibidagi uzun chiziqli to‘yingan uglevodorodlar zanjirlari va qutbli funksional guruhlarning musbat va manfiy zarrachalarning ta’siri natijasida plyonka hosil qilish orqali yuvuvchi-dispergirlovchi prisadka turiga mansub ekanligi isbotlangan va jarayonning matematik moduli yaratilgan;

5. Akrilamid asosli prisadkaning fizik-kimyoviy va texnik xususiyatlarini amalda qo‘llanilayotgan xorijiy analoglari Lubrizol 8220 markali yuvuvchi-dispergirlovchi prisadkalarining xususiyatlari bilan taqqoslash orqali prisadkalar uchun №1 220950 №2 8989730, №3 6778280 so‘m foydani keltirishi va import o‘rnini qoplash maqsadida amaliyotga tadbiiq qilishga tavsiya etilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/28.02.2022.Т.101.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ
ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

БУХАРСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

КАРИМОВА САДОКАТ АМРИЛЛОЕВНА

**ТЕХНОЛОГИЯ ПОЛУЧЕНИЯ МОЮЩИХ - ДИСПЕРГИРУЮЩИХ
ПРИСАДОК НА ОСНОВЕ АКРИЛАМИДА И ЕГО ПРОИЗВОДНЫХ
ДЛЯ ДИЗЕЛЬНЫХ ТОПЛИВ**

02.00.08 – Химия и технология нефти и газа

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Бухара - 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2025.1.PhD/T5202.

Диссертация выполнена в Бухарском инженерно-технологическом институте.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице научного совета (www.bmti.uz) и информационно-образовательном портале Ziyonet (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Фозилов Садриддин Файзуллаевич
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Махмудов Мухтар Джамолович
доктор химических наук, профессор

Абдуллаев Джахонгир Орозали оглы
доктор философии по техническим наукам
(PhD)

Ведущая организация:

Каршинский инженерно-экономический институт

Защита диссертации состоится 24 мая 2025г. в 11⁰⁰ на заседании Научного совета DSc.03/28.02.2022.T.101.01 при Бухарском инженерно-технологическом институте по адресу: 200117, г.Бухара, ул.Каюма Муртазоева, 15. Тел.: (99865) 223-78-84; Факс: (99865) 223-78-84; E-mail: bmti_info@edu.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского инженерно-технологического института (зарегистрировано за номером 353). (Адрес: 100118, г.Бухара, ул.Каюма Муртазоева, 15. Тел.: (+99865) 223-78-84)

Автореферат диссертации разослан 12 мая 2025 года.

(реестр протокола № 1 от 24 марта 2025 года).



Н.К. Мажидова
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, профессор

А.Т. Олтиев
Ученый секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор технических наук, доцент

Х.Б. Дустов
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор химических наук, профессор

Введение (аннотация диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мире стремительное развитие нефтяной и нефтехимической синтезной промышленности, а также растущий спрос на высококачественные продукты, получаемые путем очистки и переработки нефтепродуктов, требует совершенствования процессов нефтехимического синтеза, технико-технологической реконструкции и модернизации. В области переработки нефти и нефтехимического синтеза синтез полидисперсных сополимеров и селективных присадок, а также их применение в процессе эксплуатации нефтепродуктов является одной из основных задач современной нефтеперерабатывающей и нефтехимической промышленности. В связи с этим важным является решение ряда технико-экономических проблем, связанных с синтезом полидисперсных и полифункциональных присадок из местного сырья и их применением в процессе эксплуатации товарных нефтепродуктов.

В настоящее время в мире проводятся исследования по улучшению качества нефти и нефтепродуктов, их химической переработке для получения топлива и сурьмовых материалов, синтезу новых типов полифункциональных присадок для улучшения моющих и диспергирующих свойств, а также модернизации существующих технологий. В этой области особое внимание уделяется разработке современных высокоэффективных методов и технологических устройств для производства присадок на основе акриламида с бифункциональными полидисперсными и диспергирующими свойствами, с использованием вторичных источников сырья.

В нашей республике достигнуты важные результаты в области получения присадок для улучшения физико-химических и реологических свойств дизельного топлива с использованием вторичных ресурсов. Проводятся исследования по созданию высокоэффективных бифункциональных и полидисперсных присадок с депрессорными и моющими-диспергирующими свойствами для дизельного топлива, разработке их новых составов и научно-технологической базы. В стратегии развития Нового Узбекистана поставлены задачи по «широкому внедрению инноваций в экономику, развитию кооперационных связей между промышленными предприятиями и научными учреждениями». В этой связи улучшение качества нефтепродуктов, получение топлив, соответствующих мировым стандартам экологической классификации, а также разработка и внедрение импортозамещающих бифункциональных присадок на основе акриламида и их производных имеет важное значение. Данная диссертационная работа в определенной мере служит реализации задач, установленных Указом Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № PF-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», Постановлением Кабинета Министров № PQ-2614 от 28 сентября 2016 года «О мерах по увеличению производства готовой продукции, ориентированной на экспорт, на основе глубокой переработки

углеводородного сырья в 2016-2020 годах» и Постановлением № PQ-3246 от 29 августа 2017 года «О мерах по совершенствованию экспортно-импортных деятельности химической промышленности», а также других нормативно-правовых актов, относящихся к данной деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Данное исследование выполнено в соответствии с VII направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан – «Химические технологии и нанотехнологии».

